ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK USULLARI

Botirova Latofat Jo'rabek qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 402-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **K.O.Matnazarova**

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20520266

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'shlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning dolzarb masalalari va bu jarayonda pedagogik-psixologik usullarning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari, ularning muloqot madaniyatini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar va psixologik yondashuvlar yoritib berilgan. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish va nutqiy to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi samarali mashqlar majmuasi bayon etilgan. Maqola natijalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari yoki shu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun metodik tavsiya sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, og'zaki nutq, nutqiy rivojlanish, pedagogik-psixologik usullar, muloqot madaniyati, so'z boyligi, nutqiy to'siqlar, metodik tavsiya, kichik maktab yoshi.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы развития устной речи учащихся начальных классов и значимость педагогико-психологических методов в этом процессе. В ходе исследования освещены особенности речевого развития детей младшего школьного возраста, современные методы и психологические подходы, используемые при формировании их культуры общения. Также представлен комплекс эффективных упражнений, направленных на обогащение словарного запаса, формирование способности свободного мышления и преодоление речевых барьеров у учащихся в процессе урока. Результаты статьи служат методической рекомендацией для учителей начальных классов и студентов, обучающихся в данной области.

Ключевые слова: начальные классы, устная речь, речевое развитие, педагогико-психологические методы, культура общения, словарный запас, речевые барьеры, методическая рекомендация, младший школьный возраст.

Abstract: This article analyzes current issues in the development of oral speech in primary school students and the importance of pedagogical-psychological methods in this process. The study highlights the characteristics of speech development in children of primary school age, modern methods, and psychological approaches used in forming their communication culture. Furthermore, a complex of effective exercises is presented, aimed at increasing students' vocabulary, developing free thinking abilities, and overcoming speech barriers during the lesson process. The findings of the article serve as a methodological recommendation for primary school teachers and students studying in this field.

Keywords: elementary school, oral speech, speech development, pedagogical-psychological methods, communication culture, vocabulary, speech barriers, methodical recommendation, primary school age.

Nutq — shaxs rivojining asosi: Inson kamolotida, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarda og'zaki nutqning rivojlanganligi ularning ijtimoiy moslashuvi va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyat har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikrini erkin va ravon ifoda eta oladigan shaxslarni tarbiyalashni talab etadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchining kelajakdagi intellektual salohiyati poydevori hisoblanadi. Bu davrda bolaning so'z boyligi keskin osha boshlaydi va unda mustaqil fikrni mantiqiy, izchil bayon etish ehtiyoji tug'iladi. Biroq, ko'plab

o‘quvchilarda fikrni erkin bayon qilishda nutqiy to‘siqlar va uyatchanlik kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik-psixologik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir) o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu hujjatlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”[1]to‘g‘risidagi farmonida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Mazkur konsepsiyada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, ularni muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini asoslab bera oladigan shaxslar etib tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchining nutqi, fikrlashi, muloqot madaniyati shakllanadi. Agar boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmasa, keyingi bosqichlarda bu kamchilikni bartaraf etish qiyinlashadi. Shu sababli mazkur muammo nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, xususan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirish va boyitish pedagogik amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli axborot oqimining ortishi, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan muloqot madaniyati, tafakkur ravshanligi va fikrni aniq ifoda eta olish ko‘nikmalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchi shaxsining nutqiy, intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda poydevor vazifasini bajaradi. Shuning uchun og‘zaki nutqni rivojlantirishning ilmiy asoslangan usullari, samarali metodlari va didaktik vositalarini o‘rganish hamda ta’lim jarayonida qo‘llash zarurati kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar o‘quvchilarning nutq faolligini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil va erkin muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari va didaktik vositalarini o‘rganish, ularni amaliyotga tatbiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki og‘zaki nutq bolaning fikrlashini shakllantiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va keyingi o‘quv faoliyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada o‘zbek pedagog-olimlari tomonidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular nutqni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib bergan. Jumladan, K.Qosimova [1]boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasini o‘rganib, o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish va fikrni to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, og‘zaki nutqni rivojlantirishda mashq va muloqotga asoslangan topshiriqlar muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, A. G‘ulomov va M. Qodirov[2] kabi metodist olimlarning tadqiqotlarida ona tili o‘qitish jarayonida nutqiy faoliyat turlarini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda dialogik va monologik nutqni o‘stirish metodlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ular og‘zaki nutqni rivojlantirishda interfaol usullar va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini ta’kidlaydilar.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

[1] Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009. — 352 b.

[2] G‘ulomov A. va Qodirov M.Ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent : Fan va texnologiyalar,2012.-380 b.

Og‘zaki nutq — bu insonning fikr, hissiyot va tasavvurlarini tovushli til vositalari orqali bevosita ifodalash jarayoni bo‘lib, u kommunikativ faoliyatning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Lingvistik nuqtai nazardan og‘zaki nutq fonetik, leksik va grammatik birliklarning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga tayangan holda shakllanadi va real vaqt rejimida amalga oshadi.

Pedagogik jihatdan og‘zaki nutq o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi, fikrni aniq va ravon ifodalashi hamda muloqot madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy bayon qilish, tahlil va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichida nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, suhbatlar, hikoya qilish, savol-javob usullari va interfaol metodlardan keng foydalaniladi. ta’lim jarayonida o‘quvchilar erkin va faol muloqot qilish imkoniyatiga ega bo’lsalar, ularning nutqiy faolligi ortadi. O’quvchilarda o’z fikrlarini mustaqil va erkin bayon etish ko’nikmasini shakllantirish dars jarayonidagi psixologik qulaylik hamda rag’batlantiruvchi pedagogik muhitga bevosita bog’liqdir. Shu sababli, boshlang’ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bu o’quvchilarda muloqotga kirishish ehtiyojini motivatsiyasini uyg’otish hamda interaktiv metodlar orqali ularning kommunikativ faolligini muntazam qo’llab-quvvatlashdan iboratdir. Pedagogik nuqtayi nazardan nutq o‘stirish quyidagi uchta yo‘nalishni qamrab oladi:

1. Lug‘at ustida ishlash: o‘quvchi nutqini yangi so‘zlar bilan boyitish.

2. Sintaktik qurilish: so‘zlarni gapda to‘g‘ri bog‘lash va mantiqiy izchillikka erishish.

3. Talaffuz madaniyati: so‘zlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish,urg‘u va ohangga rioya qilish.

Psixolog olimlar (masalan, L.S. Vigotskiy) ta’kidlaganidek,[3] 7–10 yoshli bolalarda tafakkur nutq bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Bu davrda bola “vaziyatli nutq”dan (faqat ko‘rib turgan narsasi haqida gapirish) “kontekstli nutq”qa (ko‘rmayotgan, tasavvur qilayotgan narsasini tasvirlash) o‘ta boshlaydi.

Psixologik to‘siqlar: Ko‘p hollarda o‘quvchining nutqi rivojlanishiga quyidagi omillar xalaqit beradi:

- Xato qilishdan qo‘rqish (ijtimoiy xavotir)
- So‘z boyligining kamligi (leksik tanqislik)
- Diqqatning barqaror emasligi.

Pedagogik-psixologik usullarning mohiyati aynan mana shu to‘siqlarni bartaraf etishga, bolada “Men gapira olaman” degan ishonchni uyg‘otishga qaratilgan.

Nutqni rivojlantirishning pedagogik – psixologik usullari

(1-jadval).

Metod nomi	Metodning mohiyati	Psixologik ahamiyati	Misol
Qo‘ng‘iz	O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha tushunchalarini tizimlashtirish va so‘z boyligini oshirish	So‘zlarni mantiqiy bog‘lashni o‘rganishadi	Bahor asosiy tushuncha yoziladi.Oyoqchalariga sifat va fe’llarni yozishadi.
Zanjir usuli	Nutqning izchilligi va diqqatni rivojlantirish	Boshqalarni tinglash va voqaealar rivojini mantiqiy yakunlash	Birinchi o‘quvchi bitta gap aytadi.Ikkinchi o‘quvchi oldingi gapni

[3] Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. — T.: “O‘qituvchi”, 2005. — 252 b.

	uchun qo‘llaniladi	ko‘nikmasini oshiradi	mazmunan davom ettirishi kerak
Rolli o‘yin	Nutqiy to‘siqlarni uyatchanlikni yengish	Erkin muloqot va ijtimoiy nutq odobi shakllantirish uchun	Ertak mavzusini o‘tishda o‘quvchilarga ro‘llarni bo‘lib berish
Savol-javob (Blits-so‘rov)	Tezkor fikrlash va nutqiy reaksiyani kuchaytirish	Gaplarni Grammatik to‘g‘ri qurish mahorati	M: osmon qanday? Daraxt bargi nega sarg‘ayadi?, kabi
Sinkveyn	5 qatordan iborat qisqa,tushunarli tavsif berish	So‘z boyligini saralash va fikrni lo‘nda idodalashni o‘rgatadi	1.Kitob 2.Bilim manbayi 3.O‘qiydi,o‘rgatadi 4.Do‘st 5.Kitob-bilim manbayi





O‘quvchilarning so‘zlarni bir-biriga mantiqan bog‘lab, murakkab gaplar tuzish ko‘nikmasini shakllantirish uchun "Nutqiy piramida" o‘yinidan foydalaniladi.

O‘quvchini omma oldida gapirishga o‘rgatish, ovoz diapazoni, tana tili (jestlar) va intonatsiya ustida ishlash.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Og‘zaki nutq shaxsning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini ta’minlaydigan murakkab psixik va ijtimoiy hodisadir. Boshlang‘ich ta’limda uni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sanaladi. K.Qosimova, S.Matchonov, A.G‘ulomov va boshqa.., olimlarning nazariyalari og‘zaki nutqni rivojlantirishning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishda an’anaviy va zamonaviy pedagogik metodlarning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omildir. Tasviriy metodlar o‘quvchilarda voqelikni vizual idrok etish va mantiqiy izchillikni shakllantirsa, interfaol metodlar ularni erkin muloqotga, o‘z fikrini mustaqil va ijodiy bayon etishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tavsiyalar:

– har darsda nutqiy faollik uchun kamida 10-15 daqiqa ajratiladigan maxsus nutq mashqlarini rejalashtirish;

– o‘quvchilar uchun psixologik xavfsiz muhit yaratish: xato qilishdan qo‘rqmaslik madaniyatini shakllantirish;

– an’anaviy metodlar bilan birga interfaol metodlar (rolli o‘yinlar, debat, klaster, sinkveyn) ni tizimli qo‘llash;

– har o‘quvchining nutqiy rivojlanish dinamikasini kuzatuv kundaligi orqali qayd etib borish;

– nutq portfoliosi usulidan foydalanish.

Ota-onalarga tavsiyalar:

– bola bilan kunlik suhbat qilish, o‘qilgan kitoblar yuzasidan savol-javob o‘tkazish;

– bolaning har bir nutqiy muvaffaqiyatini e'tirof etish va rag‘batlantirish;

– nutqiy rivojlanishga yordam beradigan kitoblarni birgalikda o‘qish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. — https://lex.uz/
2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. — T.: “Fan va texnologiya”, 2009. — 148 b.
3. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009. — 352 b.
4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. — T.: “O‘qituvchi”, 2005. — 252 b.
5. Sobirova M. Boshlang‘ich ta’limda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish. — T.: O‘qituvchi, 2006. — 144 b.
6. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat”.Toshkent: Cho‘lpon — 2005.